



KORXONALARDA QARZ MABLAG'LARINI JALB ETISH ORQALI MOLIYALASHTIRISHNING NAZARIY VA TASHKILIY JIHATLARI

THEORETICAL AND ORGANIZATIONAL ASPECTS OF FINANCING THROUGH THE ATTRACTING OF BORROWED FUNDS IN ENTERPRISES

¹Jumayev Samariddin
Ziyadullayevich

¹Termiz davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi.

E-mail: sam.samar@mail.ru

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Ushbu maqolada korporativ tuzilmalar moliyaviy faoliyatini samarali tashkil etishda qarz mablag'larini jalb etish orqali moliyalashtirish masalalari nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor qarz moliyalashtirishining turlari, manbalari, afzallik va tavakkalchiliklariga qaratilgan. Shuningdek, moliyalashtirish jarayonida tashqi va ichki qarz vositalaridan oqilona foydalanish, kapital tuzilmasini optimallashtirish, korxonaning kreditboplik darajasini aniqlash hamda qarz strategiyasini ishlab chiqish bo'yicha tashkilotchilik yo'nalishlari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari asosida korxonalarda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, investitsiya faolligini oshirish va foydalaniladigan qarz resurslarining samaradorligini yaxshilashga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Eng. - This article examines the issues of financing corporate structures through the attraction of borrowed funds from both theoretical and practical perspectives, with the aim of ensuring the effective organization of their financial activities. The main focus is placed on the types, sources, advantages, and risks of debt financing. The organizational aspects of the rational use of external and internal debt instruments in the financing process, optimization of capital structure, assessment of enterprise creditworthiness, and development of a debt strategy are also analyzed. Based on the research results, proposals and recommendations have been developed to ensure the financial stability of enterprises, increase investment activity, and improve the efficiency of using borrowed resources.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ moliyaviy boshqaruv, tashqi va ichki qarz, kapital tuzilmasi, qarz strategiyasi.

❖ financial management, external and internal debt, capital structure, debt strategy.

Kirish.

Hozirgi global iqtisodiyot sharoitida faqatgina o'zini o'zi moliyalashtirish orqali faoliyatni yuritish va uni tashkil etish keskin raqobat muhitida korporativ tuzilmalar muvaffaqiyatini har doim ham kafolatlamaydi. Shuning uchun ham iqtisodiy-ijtimoiy shart-sharoitdan kelib chiqib, tashqi va ichki qarz mablag'larini jalb etish orqali moliyalashtirish amaliyotiga murojaat qilishga ham to'g'ri keladi. Xususi kapital orqali har qanday biznes

asosi tashkil etilsada, qator tarmoq korxonalarida foydalaniladigan qarz kapitali miqdori xususi kapital miqdoridan sezilarli darajada yuqori bo'ladi. Aynan shu holat bilan bog'liqlikda qarz kapitalini jalb qilish va undan samarali foydalanishni boshqarish korporativ moliyani boshqarishning muhim funksiyalaridan biri hisoblanadi. Qarz mablag'larini jalb qilishdan asosiy maqsadlar sifatida faoliyatni kengaytirish, modernizatsiya qilish, faoliyat bilan bog'liq texnologiyalarni

yangilash hamda aylanma mablag'larni to'ldirish kabilarni keltirish mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Qarz mablag'lari orqali moliyalashtirish korxonalarining moliyaviy strategiyasida muhim o'rin tutadi. Bu boradagi ilmiy tadqiqotlar, nazariy qarashlar va amaliy tavsiyalar turli mamlakatlar mutaxassislari tomonidan keng o'rganilgan. Modilyani va Miller nazariyasi (Modigliani & Miller) – moliyaviy qarorlar va kapital tuzilmasining kompaniya qiymatiga ta'siri haqidagi ilk nazariy asoslar mavjud bo'lgan. Ularning asarlarida qarz va aksiyalar hissasi qanday holatda kompaniyaning umumiy qiymatini o'zgartirmasligi yoki yaxshilashi ko'rsatilgan [2].

Breyli va Mayers (Brealey & Myers) – "Principles of Corporate Finance" asarida korporativ moliyalashtirishning turlari, xususan, qarz mablag'lari orqali moliyalashtirishning samaradorligi, tavakkalchilik va foyda oralig'idagi muvozanatni saqlashda ekanligi ta'kidlangan [3].

Richard A. Brejli, Styuart S. Mayers va Franklin Allenning ta'kidlashicha, korporativ moliyalashtirish, kapital tuzilmasini optimallashtirish, kreditboplik va qarz strategiyalarini ishlab chiqish muhim omil sifatida qaralgan [4].

S.E. Elmirzayevning qarashlariga ko'ra, korxonalarining o'z moliyaviy-xo'jalik faoliyatini qarz mablag'larini jalb qilmagan holda samarali davom ettirishi bozor iqtisodiyoti sharoitida murakkab masala hisoblanishini, ammo qarz mablag'laridan foydalanish moliyaviy-xo'jalik faoliyatini mos ravishda kengaytirish, xususiyl kapitaldan yanada samarali foydalanishni ta'minlash, turli xil maqsadli moliyaviy fondlarni shakllantirish jarayonini tezlashtirish, nihoyat, korxonaning bozor qiymatini oshirish imkonini berishini ta'kidlagan [1].

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqola ishidagi muammoni o'rganish uchun tizimli tahlil, ilmiy mushohada, analiz va sintez, induksiya va deduksiya kabi usullaridan keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Qarz orqali moliyalashtirish korporativ moliyalashtirish tizimida muhim o'rin tutadi. Korxonalarining moliyaviy ehtiyojlarini qondirishda qarz resurslari o'zining qulayliklari bilan ajralib turadi. Bunda qarz turlari (qisqa muddatli, o'rta muddatli va uzoq muddatli), ularning manbalari (bank kreditlari, obligatsiyalar, lizing va h.k.) va ularning moliyaviy strategiyadagi o'rni o'rganiladi.

Korxonalarda qarz mablag'larini jalb etish jarayonida moliyaviy rejalashtirish, kredit layoqatini baholash, kapital tuzilmasini optimallashtirish, qarz shartnomalarini tuzish va nazorat qilish kabi muhim tashkil etish jarayonlari amalga oshiriladi.

Qarz orqali moliyalashtirish kompaniyaga tezroq rivojlanish imkoniyatini yaratibgina qolmay, soliq yuklamasini kamaytiradi, ammo qarzning ortishi moliyaviy xavflarni oshiradi va kredit reytingiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Korxonalar moliyaviy ta'minotini yaxshilash va ishlab chiqarish faoliyatini rivojlantirish hamda loyihalarini moliyalashtirishda ichki (ishlab chiqarishdan tushumlar, ommaviy aksiyalar va boshqalar) va tashqi manbalardan (bank kreditlari, obligatsiyalar va boshqalar) samarali foydalanish lozim.

Qarz strategiyasi – korxonalarining moliyaviy maqsadlari, bozor sharoitlari va kapital bozoriga kirish imkoniyatlariga qarab uzoq muddat uchun shakllantiriladi. Strategiyada asosan qarzning miqdori, muddati, foiz stavkalari va qoplash usullariga e'tibor beriladi.

Qarz mablag'larini jalb etish korxonalarga o'z faoliyatini kengaytirish, investitsiyalarni moliyalashtirish va ishlab

chiqarish imkoniyatlarini oshirishga yordam beradi. Samarali moliyalashtirish uchun ichki va tashqi qarz vositalarining muvozanatini saqlash muhim, bu moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi va xavflarni kamaytiradi. Korxonalar moliyaviy rejalashtirishni takomillashtirishlari va kreditga layoqatlilikni to'g'ri baholashlari zarur, bu qarzlarning o'z vaqtida qaytarilishini ta'minlaydi.

Qarz strategiyasining to'g'ri shakllantirilishi kompaniyaning uzoq muddatli rivojlanishi va investitsiya faolligini oshirishda muhim omildir. Moliyaviy boshqaruv tizimida qarz mablag'larining samarali jamlanishi, sarflanishi va nazorati kompaniyaning iqtisodiy natijalarini yaxshilaydi. Shu sababli qarz va o'z kapitalining muvozanatini topish muhim hisoblanadi.

Korporativ tuzilmalarni bevosita faoliyatini rivojlantirish hamda faoliyat uzluksizligini ta'minlashda qarz mablag'lari jalb etiladi. Korporativ tuzilmalarni qarz mablag'lari hisobiga moliyalashtirishda quyidagi muhim prinsiplar amal qiladi:

- ❖ qarz mablag'lari maqsadli bo'lishi;
- ❖ ma'lum garov mulki bilan ta'minlangan bo'lishi;
- ❖ to'lovga qobiliyatli bo'lishi;
- ❖ qarz majburiyatini o'z vaqtida qaytarish va muddati aniqlangan bo'lishi.

Maqsadlilik prinsipi bu qarz berish amaliyoti bevosita aniq maqsad mavjud bo'lgan holatdagina amalga oshirilishini nazarda tutadi. Vaholanki, qarz mablag'larini beruvchi kreditorlar birinchi navbatda mablag' jalb qilish uchun qo'yilgan maqsadning aniqligi va shaffofligi masalasiga e'tibor qaratadi. Agar qo'yilayotgan maqsad noaniq bo'lsa yoki iqtisodiy sharoitga javob bermasa, aniq maqsadga ega kreditor bu taklifni rad etadi. Bunga sabab sifatida kreditor korporativ tuzilma (umuman, har qanday kredit oluvchi)ga qarz mablag'i taqdim etishdan manfaatdor ekanligini keltirish mumkin.

Ma'lum garov mulki bilan ta'minlangan bo'lish prinsipi kreditorning majburiy sharti

sifatida qaraladi. Bunda qarz taqdim etish jarayonida kreditor kredit riskini kamaytirish maqsadida o'z faoliyatini qarz mablag'lari hisobiga moliyalashtirmoqchi bo'lgan subyektdan ma'lum bir ta'minot (garov, uchinchi shaxs kafilligi va hokazo) talab qiladi. Aynan shu jihat qarz mablag'lari hisobiga moliyalashtirishning navbatdagi muhim prinsipi sifatida qaraladi.

To'lovga qobiliyatli bo'lish prinsipida qarz mablag'i sifatida taqdim etilgan mablag'lardan foydalanish evaziga qarz oluvchi tomonidan kreditorga aniq miqdordagi to'lov (foiz to'lovlari)ni to'lab borish majburiyati nazarda tutiladi. Qarz mablag'lari bo'yicha foiz stavkasi pul mablag'larining miqdori va foydalanish muddati, qarz mablag'i taqdim etish amaliyotining xavflilik darajasi, korporativ tuzilmaning likvidlilik darajasi hamda kreditor tomonidan qo'yiladigan boshqa talablarga bog'liq holda belgilanadi.

Qarz majburiyatini o'z vaqtida qaytarish va muddati aniqlangan bo'lish prinsipi qarzдор tomonidan olingan asosiy qarz summasini belgilangan muddatda to'liq qoplash majburiyatini o'zida aks ettiradi. Shundan kelib chiqib, qarz mablag'larini qaytarish muddatidan kelib chiqqan holda korporativ tuzilmalar tomonidan pul oqimlarini rejalashtirish talab etiladi. Aks holda qo'shimcha majburiyatlar yuzaga keladi. Shu bilan birga, qarz mablag'lari hisobiga moliyalashtirishning aniq muddati asosida amalga oshirilishini nazarda tutgan holda, muddat nihoyasiga yetgach, olingan qarz mablag'larining kreditorga qaytarilishi shartligini bildiradi.

Germaniya taraqqiyot banki DEG ekspertlari Matthijs de Bruijn, Ilana Tyler-Rubinstein and Marton Perlaki, Steward Redqueenlarning qarashlariga ko'ra, qarz mablag'lari rivojlanayotgan bozorlar va rivojlanayotgan mamlakatlarda ham rivojlanish tendensiyasini, ham xususiy institutsional kapitalni boshqarishga yordam beradigan muhim vosita ekanligini qayd etgan.

Shuningdek, qarz fondlariga investitsiya qilish to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarga, shuningdek, xususiy kapital fondlariga nisbatan o'ziga xos afzalliklarga ega. Bundan tashqari, qarz

mablag'lari xususiy kapital fondlariga nisbatan ancha katta portfeylga ega bo'lib, bu investitsiya ko'lami va ta'sirining tarqalishini oshiradi hamda risklarni kamaytiradi [5].

1-jadval

Qarz va xususiy kapital fondlarining asosiy xususiyatlari [6]

Ko'rsatkichlar	Qarz fondlari	Xususiy kapital fondlari
Xavf profili	Pastroq	Yuqori
Qaytish potentsiali	Past (asosiy foiz to'lovlari hisobiga)	Yuqori (asosiy investitsiyalarning o'sishi hisobiga)
Nazorat/ta'sir	Boshqaruv va strategik qarorlarga bevosita ta'sir ko'rsatmaslik bilan cheklangan	Boshqaruv va strategik qarorlar qabul qilishda faol rolga ega
Likvidlik	Qisqa muddatli, kamroq likvidlik	Uzoq muddatli, yuqori likvidlik
Fondning ishlash muddati	10-30 yil, investorlar uchun muddatlar	10-12 yil
Chiqishlar	Kreditlarni to'lash muddati	IPO, sotish va boshqalar orqali kelishilgan chiqishlar

Qarz mablag'lari hisobiga moliyalashtirish orqali pul mablag'larini jalb etish shaklidan foydalanish bevosita moliya bozoridagi holat, kapital bahosi, tarmoq xususiyatlari va faoliyat turi, biznes yuritishning tashkiliy-huquqiy shakli, korporativ tuzilmaning moliyaviy-iqtisodiy holati kabi omillarga bog'liq bo'ladi. Qarz mablag'lari hisobiga moliyalashtirishda, avvalo, bank kreditlari ko'z oldimizga keladi. Bank kreditlari – bevosita tijorat banklari tomonidan korporativ tuzilmalar (boshqa subyektlarga ham)ga aniq shartlar asosida beriladigan qarz mablag'laridir. Bank kreditlari quyidagi maqsadlarda jalb qilinadi:

- ❖ aylanma mablag'larni to'ldirish;
- ❖ investitsion loyihalarni moliyalashtirish;
- ❖ oldin jalb qilingan qarz mablag'larini qayta moliyalashtirish;
- ❖ birlashish va qo'shib olish bo'yicha bitimlarni moliyalashtirish va boshqalar.

Zamonaviy iqtisodiyotda raqobat kuchayib borayotgan va texnologik yangilanish talab etilayotgan sharoitda korxonalarining barqaror faoliyat yuritishi va rivojlanishi uchun yetarli moliyaviy manbalarga ega bo'lishi juda

muhimdir. Bunday manbalardan biri – qarz mablag'laridir. Korporativ tuzilmalar tomonidan qarz mablag'larining turli instrumentlaridan foydalanish darajasi oshib bormoqda.

Tijorat banklari tomonidan korporativ tuzilmalar uchun investitsion loyihalarini yoki iqtisodiy dasturlarini amalga oshirish, ishlab chiqarishni texnologik yangilash maqsadida uzoq muddatli kreditlar ham taqdim etiladi. Bunda keltirib o'tilgan maqsadlar uchun kredit liniyalari ham ochilishi mumkin. Mazkur kredit turida qarz oluvchiga nisbatan qo'yiladigan kredit berish bo'yicha talablar oddiy kreditlar kabi amal qiladi. Lekin farqli jihat sifatida qarz oluvchining maqsadini o'z ichiga olgan investitsion loyiha (iqtisodiy dastur) biznes-reja yoki texnik-iqtisodiy asosnoma tijorat banklari tomonidan jiddiy tarzda ko'rib chiqiladi. Bunda ayniqsa loyihalarning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlariga alohida e'tibor qaratiladi.

Bugungi kunga kelib investitsion loyihalar ko'lami ham keskin darajada kengaydi. Xususan, kimyo sanoati korxonalarining uzoq yillar davomida bank

kreditlarini jalb etish tendensiyasini quyidagi 2-jadvalda ko'rish mumkin.

2-jadval

Kimyo korxonalari tomonidan jalb qilingan qarz mablag'lari [6]

Nº	Korxona nomi	O'lchov birligi	Kredit summasi	Kredit ajratish maqsadi	Olingan yillar
1	"Maxam-Chirchiq" AJ	mlrd. so'm	1 150,80	Aylanma mablag'larni to'ldirish uchun	2022-2025-yillar
2	"Dehqonobod kaliy zavodi" AJ	mln. doll.	162,20	Investitsion loyihalar va aylanma mablag'lar uchun	2007-2031-yillar
3	"Indorama-Farg'onaazot" AJ	mlrd. so'm	863 446,3	Investitsion loyihalar va aylanma mablag'lar uchun	2022-2025-yillar
4	"Qo'ng'iro't soda zavodi" MCHJ QK	mln. doll.	77,14	Investitsion loyiha (Texnik tuzni qazib olish hajmini 2 barobarga oshirish va kalsiyatsiyalangan soda ishlab chiqarishni kengaytirish)	2012-2032-yillar

Korxonalarda qarz mablag'larini jalb qilishda strategik yondashuv mavjud bo'lib, ichki va tashqi manbalardan foydalanilgan, aylanma mablag'lar bilan bir qatorda investitsion faollikka ham katta e'tibor qaratilgan. Tarmoqdagi korxonalar uchun valyutadagi qarzlar bo'yicha valyuta risklarini boshqarish mexanizmlari ishlab chiqilishi zarur bo'ladi. Chunki kelgusida milliy valyutadagi o'zgarishlar qaytarish qobiliyatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Kreditlar qaytarilishini ta'minlash uchun kredit layoqatini baholash, loyihalarning rentabellik darajasini tahlil qilish, sarflangan mablag'lar samaradorligini baholash ham muhim o'rin tutadi.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilganda, hozirgi iqtisodiy sharoitda korxonalarda qarz mablag'larini jalb etmasdan moliyaviy boshqaruv tizimi, mahsulot ishlab chiqarish uzluksizligi va resurslar bilan ta'minlanganlik darajasini bir maromda olib borish mushkul.

Qarz mablag'lari korxonalarning moliyaviy barqarorligini saqlash va rivojlanishini ta'minlashda, uning kelgusi strategiyalarini amalga oshirishda muhim moliyalashtirish manbai hisoblanadi. Kimyo

sanoati korxonalari misolida ko'rinib turibdiki, yirik sanoat korxonalari aylanma mablag'larni to'ldirish va investitsion loyihalarni amalga oshirish uchun qarz resurslarini faol jalb etishgan. Bu esa kelgusida qarz mablag'larining maqsadli va strategik yo'naltirilishi investitsion faollikning o'sishiga, ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishiga xizmat qiladi.

Qarz mablag'larini jalb etish turlaridan biri bu bank kreditlari hisoblanadi. Kredit mablag'larini jalb etishda ularning muddatlari loyiha (qo'yilgan maqsad)ni amalga oshirish muddatlariga to'g'ridan-to'g'ri mos kelishi shart. Shuningdek, banklarning kreditlash qobiliyati olinishi ko'zda tutilgan loyiha qiymatiga mos kelishi lozim.

Kredit muddatlarining farqliligi (qisqa, o'rta va uzoq muddatli) loyihalar xususiyatiga mos tanlanishi kerak. Uzoq muddatli kreditlar — kapital sig'imini kengaytirishga yordam beradi, qisqa muddatli kreditlar esa aylanma mablag'larini qoplashni ko'zlaydi. Korxonalar tomonidan valyutada qarz mablag'larini jalb qilinishi — tashqi manbalarga chiqish imkoniyatini beradi, biroq bu valyuta xatarlarini ham keltirib chiqaradi.

Shu sababli, bunday kreditlar uchun xedjirlash va sug'urta vositalaridan samarali foydalanish muhim. Milliy iqtisodiyotda kredit

mablag'larini jalb etish uchun avvalo korxonalarda qarz strategiyasini ishlab chiqish, kapital tuzilmasini optimallashtirish va kredit layoqatini baholash amaliyotini

takomillashtirish zarur. Bu o'z navbatida, kredit mablag'larining maqsadli va samarali ishlatilishini, moliyaviy tavakkalchiliklarni kamaytirishni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. S.E. Elmirzayev. "Korporativ moliya". Darslik. – Toshkent: "Iqtisod-moliya", 2019.
2. Modigliani, F., & Miller, M. H. (1958). *The Cost of Capital, Corporation Finance and the Theory of Investment*. American Economic Review.
3. Brealey, R. A., Myers, S. C., & Allen, F. (2020). *Principles of Corporate Finance*. 13th Edition. McGraw-Hill Education. M.Dalocchio *Corporate finance: theory and practice*. USA, Wiley, 2014 29 p.
4. Richard A. Brealey, Stewart C. Myers, and Franklin Allen – "Corporate Finance".
5. Matthijs de Bruijn, Ilana Tyler-Rubinstein and Marton Perlaki, Steward Redqueen 2024 y. "STUDY ON THE DEVELOPMENT EFFECTS OF DEBT FUNDS"
6. Mustaqil izlanishlar va kimyo sanoati korxonalarining ma'lumotlari.